

BOLALAR BILAN HAYVONOT OLAMIGA SAYOHAT

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani

Marg'uba Tursunqulova

Bolalar uchun yaratilgan ertaklarning asosiy qismi hayvonlar haqidagi ertaklardir. Bola tabiatan tevarak-atrofga, borliqqa, ayniqsa hayvonot olamiga judaqiziqadi. Hayvonlar haqidagi ertaklarni butun borlig'i bilan eshitadi, multfilmlarni berilib tomosha qiladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan darsliklarga hayvonlar haqidagi ertaklarning kiritilishi tabiiy.

O'rta ta'lim maktablarining ikkinchi sinf o'quvchilari uchun tayyorlangan "O'qishkitobi" darsligiga "Tulki bilan Xo'roz", "Tuya, Fil va Olmaxon", "Qarg'a bilan Tulki", "Hakka bilan Tulki", "Mushuk bilan Sichqon", "Qaldirg'och bilan Beshik tervatar" kabi ertaklar kiritilgan. Bu ertaklardagi hayvonlar va ularning tabiati bilan o'quvchilar o'zlaricha tanish. Chunki ular bog'cha tarbiyasidan yoki uyda yaqinlaridan ular haqidagi turli mavzudagi ertaklarni eshitishgan, televizor yoki kompyuterda tomosha qilishgan. Shu tufayli har bir mavzuni o'tishda o'qituvchi avvalo ertakni o'quvchilarga aytib berishi yoki mazmunini hikoya qilib berish zarur. O'rni bilan shu ertakka mazmunan yaqin bo'lgan boshqa ertaklarni eslatishi yoki o'quvchilarning o'zidan ham so'rashi mumkin.

Shundan keyin o'qituvchi o'zi o'tayotgan mavzu qahramonlarining nomi, ulaning tabiati, kiyinishi haqida taxminan shunday savol-javob o'tkazishi mumkin. "Qarg'abilantulki" ertagini o'tishda tulkining rasminiko'rsatib:

- Bu qanday hayvon?
- Ko'rinishi qaysi hayvonlarga o'xshaydi?
- Tulki haqida qanday multfilmlarni ko'rgansiz?
- Tulkini nima uchun ayyor deymiz?

Darsni nostandart ta'lim tizimida tashkil qilgan o'qituvchi yangi pedagogic texnologiyalarning turli usullaridan foydalanishi lozim. Ayniqsa, ikkinchi sinf o'quvchilari uchun kompyuter texnologiyalari dan foydalanib, mavzuga oid yoki unga mazmunan yaqin bo'lgan multfilmlarni namoyish etish darsning samaradiligini yanada oshiradi. Ertaklarning boshqa qahramonlari bo'lgan xo'roz, qarg'a, tuya, fil, qaldirg'och haqida ham shunday ma'lumotlar berish foydalibo'ladi.

O'quvchilar tabiatan qiziquvchan bo'lganligi uchun bolalarga xos bo'lgan kutilmagan savollar berib qolishlari ham mumkin. O'qituvchi bunday hollarni

nazardan qochirmay, bolaning yosh xususiyatini, qiziquvchanligini, o'y-fikrlarini hisobga olib, javob berishi lozim. Bolaning qalbi musaffo, beg'ubor, shaffofday tiniq. No o'rin javob yoki ortiqcha tanbeh ham unga darz yetkazishi mumkin. Ular hali yolg'onchilik, riyokorlik, qabihlik nimaligini bilmaydi. Kasbining ustasi bo'lgan pedagog esa ana shu pokiza qalbga yo'l topa oladi. Bunda o'qituvchi uchun darslikka kiritilgan hayvonlar haqidagi ertaklar yordamga keladi. O'qituvchi darsni yakunlashidan oldin har bir hayvonning o'z xususiyatidan, tabiiy ko'rinishidan, hatti-harakatidan kelib chiqqan holda savollar berib o'quvchining bilimini mustahkamlaydi. Shu bilan birga ularning hayvonot olamini nechog'lik bilishlarini aniqlaydi.

Ikkinchi sinf o'quvchilari bilan hayvonlar haqidagi ertaklarni o'qitishda yangi pedagogic texnologiyalardan foydalanib, kompyuterdan unumli foydalanish, monitorda har bir hayvonning ko'rsatish, ularning jonli tabiatga ko'rsatadigan ta'sirlarini foydali va zararli tomonlarini ochib berish dars samaradorligini oshiradi. Nostandart ta'lim tizimida bunday darslarni tabiat quchog'ida o'tkazish o'quvchining hayvonot olami haqidagi tushunchalarini yanada kengaytiradi va ularga nisbatan beg'ubor qalblarda muhabbat uyg'otadi.

Bolalalarni tabiat bilan uyg'unlikda kamolga yetkazish bugungi kunning muhim va zifalaridan biridir. Ekologik tarbiya to'g'risida bugungi kunda asosiy masala sifatida bong urilayotgan ekan bu hol bejizga emas. Chunki, yosh avlod onazaminimizni asrab qolish, uni sof va musaffo holda kelgusi avlodga yetkazish aynan ularning zimmasidagi vazifa bo'lar ekanbugungi kun o'qituvchilari o'z tarbiya qilayotgan avlodni ekologik jihatdan bilimdon avlod qilib tarbiyalashga mas'uldirlar.